

Dastlabki Atrof-Muhit Tekshiruv

OMMAVIY

Loyiha raqami: 53120-001

Sentabr, 2025

Loyiha hisoboti

O'zbekiston: Orol dengizi havzasida Iqlimga mos
suv resurslarini boshqarish loyihasi (R8 Asosiy
bo'lmagan subloyiha, Xorazm viloyati)

Prepared by the Center for Implementation of Foreign Investment Projects in Water Sector under
Ministry of Water Resources of the Republic of Uzbekistan and the Asian Development Bank (ADB).

Ijroiya xulosasi

1. **O'zbekiston Respublikasi** Markaziy Osiyoda joylashgan, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan (qo'shni davlatlar ichida qolgan) mamlakat bo'lib, umumiy maydoni 448 900 kv kilometrni (km²) tashkil etadi. O'zbekiston shimol va g'arbdan — Qozog'iston, sharqdan — Qirg'iziston, janubi-sharqdan — Tojikiston, janubdan esa — Turkmaniston va Afg'oniston bilan chegaradosh.¹

2. **Qishloq xo'jaligi** O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi, chunki u qishloq aholisi tirikchiligi, bandlik, o'zini-o'zi ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Sektor yalpi ichki mahsulot (YalM) va bandlikning 25 foizidan ortig'ini ta'minlaydi hamda mamlakatdagi umumiy suv iste'molining qariyb 90 foizini tashkil etadi². Hisob-kitoblarga ko'ra, jami aholining qariyb 50 foizi qishloq joylarda yashaydi va shuning uchun mamlakat qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq turmush tarziga juda bog'liq.

3. Mamlakatning umumiy qishloq xo'jaligi erlari 25,2 million gektarni (ga) tashkil etadi, shundan 4,3 million gektar (ga) sug'oriladigan yerlar va 23,4 million gektar hosili kam yoki unumdorligi past yaylovlardir.³ Sug'oriladigan maydon Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joylashgan bo'lib, umumiy sug'oriladigan yerlarning mos ravishda 56 foizi va 44 foizini tashkil etadi. Ushbu ikki daryo asosiy suv manbai hisoblanadi va mamlakat mintaqada mavjud umumiy suv resurslarining 52 foizini oladi. Suvning qariyb 90 foizi qishloq xo'jaligi sektori tomonidan iste'mol qilinadi.

4. Jahon banki hisobotiga ko'ra (Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023 yil noyabr), sug'orish uchun suv talabi 2030-yilga borib 5 foizga va 2050-yilga borib 7–10 foizga oshishi mumkin. Suv tanqisligi 2030-yilga borib yiliga 7 milliard kub metr ga va 2050-yilga borib 15 milliard kub metr ga ko'tariladi.

5. Iqlim o'zgarishi sababli 2050-yilga borib, xuddi shu hisobotda Amudaryo (15 foiz) va Sirdaryo (5 foiz) suv resurslarining qisqarishi bashorat qilinmoqda, Har ikkala daryo O'zbekistonda sug'orish uchun hayotiy manba hisoblanadi.

6. Sug'orish maqsadida suvni nasoslar yordamida chiqarish O'zbekistonda ishlatiladigan elektr energiyasining 15–20 foizini tashkil etadi. Bu esa har yili 3 million tonnadan ortiq CO₂ (issiqxona gazi – karbonat angidrid (CO₂)) chiqindilariga teng bo'lib, mamlakatning umumiy chiqindilarining taxminan 2–3 foizini tashkil etadi. 2010–2016 yillar davri uchun Issiqxona Gazlari (IG) inventarizatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, energiya sektoridan keyin qishloq xo'jaligi O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilarining ikkinchi yirik manbai hisoblanadi⁴.

7. Sug'orish tarmoqlarining asosiy qismlari sovet davrida 1960-1980 yillarda qurilgan bo'lsa, ba'zilar undan oldin ham qurilgan. Sug'orish va drenaj infratuzilmasining yomon ahvoli va eskirganligi sababli sug'orish samaradorligi past, taxminan 40 foizni tashkil etadi.⁵

8. So'nggi yillarda Hukumat tomonidan yer va suv resurslarini boshqarishni yaxshilashga, jumladan, drenaj va sug'orish tizimlariga katta e'tibor qaratildi va bu yo'nalishda yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda. Shunday tashabbuslardan biri Hukumat va Osiyo

¹ <https://iea.blob.core.windows.net/assets/0d00581c-dc3c-466f-b0c8-97d25112a6e0/Uzbekistan2022.pdf>

² <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>

³ Osiyo Taraqqiyot Banki, TRTA 9782-UZB, 'Aral dengizi havzasida Iqlimga Mos Suv Resurslarini Boshqarish Loyihasini Tayyorlash', Boshlang'ich Hisobot (Inception Report), dekabr 2019

⁴ Draft Feasibility Report (2024). Full name pls

⁵ <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>

Taraqqiyot Banki (OTB) hamkorligida olib borilayotgan “Orol dengizi havzasida iqlimga moslashuvchan suv resurslarini boshqarish” loyihasi hisoblanadi.

9. Sug‘orish va drenaj (S&D) tizimini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun hukumat sakkizta potensial kichik loyihalar (subloyihalar) ro‘yxatini taklif qildi (1-rasm). Hukumat va OTB 2019-yilda ikki vakillik qiluvchi “Asosiy” subloyihani tanlagan, ya’ni: (a) Bobatog sug‘orish tizimi, (b) Jondor sug‘orish tizimi – hozirda amalga oshirilmoqda. Ushbu ikki kichik loyihalar uchun tadqiqotlar, texnik-iqtisodiy asoslash ishlari hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talablar, jumladan Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi (DAMT), tayyorlandi; Shuningdek, hukumat va OTB o‘rtasida hukumat taklif qilgan ro‘yxatdan ikki **“asosiy bo‘lmagan”** subloyihani tanlash **uchun OTBning oldindan belgilangan mezonlaridan foydalanishga** kelishib olindi (14-jadval).

1-rasm: Subloyihalarning joylashuvi



10. **Asosiy bo‘lmagan** loyihalarni tanlash – Ikki ta asosiy bo‘lmagan kichik loyihalardan biri sifatida hukumat Xorazm viloyatidagi R8 sug‘orish tizimini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun oldindan belgilangan **Saralash Mezonlari** asosida tanladi. Batafsil ma’lumot uchun 15 va 16-jadvalga hamda 1-Ilovaga qarang. R8 sug‘orish tizimini

modernizatsiya qilish va iqlimga moslashuvchan choralarni ko'rish qishloq xo'jaligi samaradorligini va fermerlar daromadlarini oshirish bilan birga, fermer xo'jaliklari hamda suvdan foydalanishni boshqarish salohiyatini mustahkamlaydi.

11. Kanallarning yomon holati, yuqori darajadagi sizib chiqishlar (kanal tubi va devorlaridan suvning ko'p miqdorda yerga sizib ketishi), boshqaruv belgilarining yetishmasligi, gidravlik inshootlarning eskirishi va yemirilishi, sug'orish samaradorligining pastligi hamda ekspluatatsiya xarajatlarining yuqoriligi — R8 kanalini modernizatsiya qilish uchun tanlab olishning asosiy omillari hisoblanadi.

12. R8 asosiy bo'lmagan subloyihasi tuproqli kanal bo'lib, 1940-yilda qurilgan. R8 subloyihasi Xorazm viloyatida joylashgan bo'lib, Bog'ot, Xonqa va Yangiariq tumanlarini (asosan Yangiariqni) qamrab oladi hamda umumiy sug'oriladigan maydoni 19 992 gektarni tashkil etadi. Tuproq kanali yuqori darajadagi filtratsiyaga ega (suvning katta qismi yer ostiga singib ketadi). R8 sug'orish tizimining tafsilotlari 1-Jadvalda keltirilgan.

13. **Institutsional tuzilma** - Loyihani ijro etuvchi tashkilot Suv xo'jaligi vazirligi (SXV) to'rtta loyiha (ikkita asosiy va ikkita asosiy bo'lmagan subloyiha) bo'yicha hisoblanadi. SXSXILAOM (CIFIPWS) qoshidagi Loyihani amalga oshirish bo'limi (LAOB-PIU) loyihalash, qurilishni boshqarish va nazorat qilish, shu jumladan Atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash uchun javobgardir. Vazifa va javobgarliklar haqida batafsil ma'lumot uchun 54-Jadvalga qarang.

14. **QK SMEC International Pty Ltd. va Annexure Financial Solutions Ltd.** 2022-yildan 2028-yilgacha yetti (7) yil muddatga Loyihani amalga oshirish bo'yicha maslahatchi (LAOBM-PIC) etib tayinlangan, bu LAOBga texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlashda, "asosiy bo'lmagan" sug'orish sub'ektlari uchun DAMT (Dastlabki atrof-muhit tekshiruv-IEE)ni o'tkazishda yordam beradi; umumiy loyihani amalga oshirish, shu jumladan xaridlar, moliyaviy boshqaruv, qurilish nazorati, himoya choralari (ekologik va ijtimoiy), monitoring va hisobot.

1-jadval: R8 subloyihasi va Ikkilamchi kanalning qisqacha ma'lumotlari

Tafsilotlar	R8 asosiy bo'lmagan subloyihasi
Loyiha ijro etuvchi tashkilot	Suv xo'jaligi vazirligi (SXV)
Loyihani amalga oshirish bo'limi (LAOB)	SXSXILAOM tarkibidagi LAOB
Loyihani amalga oshirish bo'yicha maslahatchi (LAOBM)	QK SMEC International Pty Ltd. va Annexure Financial Solutions Ltd
Loyiha kategoriyasi	B toifali loyihalar sifatida tasniflangan; batafsil ma'lumot uchun 16-jadvalga qarang
R8 ning joylashuvi	Xorazm viloyati
Qurilgan yili	1940
Kanalning turi	Tuproqli kanal
R8 kanali uchun suv manbai	Amudaryodan suv oladigan PK293+25 da Toshaka kanalidan olinadi
Kanaldan foydalanish qamrovi va uning samaradorligi	R-8 kanali 1940 yilda qurilgan va shundan beri hech qachon qayta rekonstruksiya qilinmagan. Kanal uzunligi: 27.1 km.

	• Dastlabki loyihada belgilangan oqim: soniyasiga 60 m³, amaldagi haqiqiy oqim: taxminan soniyasiga 33 m³. • Suv yo'qotishlari va kanal samaradorligi – Texnik-iqtisodiy asoslash hisobotida (2023) berilgan baholashga ko'ra, uzunligi 27,1 km bo'lgan kanalda umumiy suv yo'qotishlari taxminan 7,0 m³/sekundni tashkil etadi va kanal samaradorligi taxminan 72% deb hisoblangan. • Mavjud suv sathi kanaldan suv olish uchun yetarli darajada tabiiy oqim bosimiga (gravitatsiyaga) ega emas. Tuproq asosida qurilgan ushbu kanal yuqori darajadagi filtratsiyaga (suv tuproq orqali ko'p miqdorda sizib ketadi, bu esa katta suv yo'qotishlariga olib keladi) ega. • Tizimning umumiy holati o'rtacha darajadan qoniqarsizgacha (medium to poor) deb baholanadi.
Modernizatsiya va rekonstruksiya doirasi	• R8 kanalini rekonstruksiya qilish hajmi ikki qismdan iborat. a) Asosiy kanal - 27.195 km b) Ikkilamchi kanal (Ostona kanal) - 6.415 km
Suvni olish hajmi	• So'nggi to'rt yil davomida o'rtacha yillik suv olish hajmi 456 million m³ ni tashkil etdi, o'rtacha vegetatsiya davridagi talab 320,30 million m³ bo'ldi, vegetatsiya davridan tashqari davrda suv olish hajmi esa 135,85 million m³ ni tashkil etdi • R8 kanaldan suv olish rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan yuqori bo'lgan. 2019-yilda suv olish hajmi rejalashtirilgandan 65% ko'p bo'lgan. Xuddi shuningdek, 2020, 2021 va 2022-yillarda ham mos ravishda 19%, 24% va 48% yuqori bo'lgan. Batafsil ma'lumot uchun 12- va 13-rasmlarga qarang.
Ekin ekish	• Paxta, kuzgi bug'doy, sholi, bog'dorchilik ekinlari (olma, o'rik va uzum), yem-xashak ekinlari (makkajo'xori va beda), tomorqa bog'lari va boshqalar.
Mavjud kommunikatsiyalar (inshootlar va tarmoqlar)	• Asosiy kanal bo'yicha 25-jadvalga qarang. Ikkilamchi kanal bo'yicha esa 2-bandga qarang
Atrof-muhit va ijtimoiy masalalar	
Atrof muhitga ta'siri	• Asosan o'rtacha, vaqtinchalik va obyektga (joy) xos
Daraxtlarni kesish	• Dastlabki tadqiqotlarga ko'ra, (a) Magistral kanalda - 1870 daraxt va (b) Ikkilamchi kanalda - 2000 ta daraxt ta'sir ko'rsatadigan daraxtlar soni. DAMT ishlab chiqish bosqichida daraxtlar inventarizatsiyasi quyidagicha bo'lgan: Osiyo teragi (Turongil) - 1797, Willow (Janubiy) Terak - 124, Elaeagnus angustifolia (Jida) - 58, Salix Wilhelmsiana M.B. (Qorator) - 188.
Biologik xilma xilligi	• Sub-loyiha hududi atrofida 1, 2 va 5 km radiusda hech qanday KBA (Key Biodiversity Area - asosiy biologik xilma-xillik hududi) aniqlanmadi. • Sub-loyiha hududi atrofida 10 km radiusda potentsial xavf ostidagi turlar aniqlanmadi • XTRSI (Xalqaro tabiiy resurslarni saqlash ittifoqi) Xavf ostidagi turlar Qizil Ro'yxatida hech qanday tur mavjud emas • Ramsar konvensiyasi bo'yicha e'tirof etilgan (ro'yxatga olingan) botqoqlik hududlari mavjud emas • O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlari topilmagan • 1, 2 va 5 km ichida qo'riqlanadigan hududlar yo'q

	• Markaziy Osiyo uchish yo'li (MOUY) hotspot (yuqori ahamiyatga ega) hududiga kiradi⁶ • Ekotizimning umumiy faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy (keystone) turlar mavjud emas
Majburiy ko'chirish	• Yo'q, biroq kanal loyihasi yakunlangandan so'ng, jismoniy va iqtisodiy ko'chirishlarning oldini olish maqsadida ijtimoiy tekshiruv (social due diligence) o'tkazilishi tavsiya etiladi
Asbest tarkibli material (ATM)	• Obyektni o'rganish davomida tarkibida asbest bo'lgan materiallar aniqlanmagan.
Loyiha benefisiarlari (manfaatdor tomonlari)	• Yer foydalanuvchilari, ayollar boshchiligidagi fermer xo'jaliklari, uy xo'jaliklari, kanalni boshqaruvchi tashkilot va boshqalar.
Loyiha natijalari va ishlar (natijaga erishish uchun bajarilgan aniq ishlar (ishlab chiqarilgan mahsulot))	
Loyiha natijalari	• Loyiha quyidagilarga erishadi: - Iqlim o'zgarishlariga chidamli va modernizatsiya qilingan sug'orish tizimlari orqali suv ta'minoti xavfsizligini oshiradi, - Qishloq xo'jaligi mahsulдорligini ko'paytiradi - Degradatsiyaga uchragan yerlarni yaxshilaydi (tiklaydi).
Loyiha natijalari	• Suv ta'minoti xavfsizligining ta'minlanishi fermerlar daromadlarini mustahkamlaydi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilaydi • Infratuzilmani boshqarish va suvdan foydalanish samaradorligi bo'yicha SXT (Suv xo'jaligi tashkilotlari) va SFU (suv foydalanuvchilari uyushmalari) salohiyatini oshirish. • Loyiha boshqaruvida va ayollar tomonidan boshqariladigan fermer xo'jaliklarida ayollarning ishtiroki va ulardan foydalanish kengaytiriladi. • Gender tengligi ta'minlanadi va ayollarning yer va suv resurslarini boshqarishda ishtiroki kuchaytiriladi. • Iqlim o'zgarishlariga chidamli sug'orish va drenaj (S&D) infratuzilmasi yaratiladi

15. OTBning oldindan belgilangan Saralash mezonlariga ko'ra, R8 asosiy bo'lmagan kichik loyiha B toifali loyihalar sifatida tasniflanadi. R8 kichik loyihasi, shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan 2017-yilda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi"ga ham mos keladi. Ushbu strategiyada quyidagilar belgilangan: (i) suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish hamda iqlim o'zgarishi va Orol dengizining qurib borishining salbiy ta'sirini kamaytirish choralar; (ii) sug'oriladigan yerlar va sug'orish inshootlarini yaxshilash; va (iii) qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, jumladan, paxta va don ekinlari maydonlarida bog'dorchilik hamda boshqa yuqori qiymatli ekinlarni yetishtirishni kengaytirishni qo'llab-quvvatlash.

16. Xorazm viloyatidagi R8 subloyihasining Dastlabki Atrof-muhitni Tekshirish (DAMT) hujjati CAWRM-ASBSP doirasida Osiyo Taraqqiyot Bankining (ADB) "Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti" (EIXSB, 2009) talablariga muvofiq tayyorlandi. Ushbu EIXSB quyidagi maqsadlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan:

a) R8 subloyihasini amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bevosita, bilvosita, kumulyativ (to'planib boruvchi) va qo'zg'atilgan (induktsiyalangan) ekologik ta'sirlar hamda xavflarni aniqlash.

⁶ Markaziy Osiyo Uchish Yo'llari (Central Asian Flyway, CAF) – ko'chmanchi qushlarning millionlab populyatsiyalarini saqlashda muhim rol o'ynaydigan keng migratsiya yo'llari tarmog'idir. U Arktika va sub-Arktika hududlaridagi ko'payish joylarini Janubiy Osiyo, Hind okeani va Afrika hududlaridagi qishlash joylari bilan bog'laydi

b) Subloyihalarning muqobil variantlarini (alternativlarini) tahlil qilish, iqlim jihatdan inklyuziv bo'lgan texnik yechimlarni taqdim etish, shu jumladan 'loyihani amalga oshirilmalik' (no-project) variantini ham ko'rib chiqish.

c) Subloyiha dizayn paketiga kiritilishi va keyinchalik pudratchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan Atrof-muhitni boshqarish rejasi (AMBR)ni ishlab chiqish. Ushbu reja taklif etilgan yumshatish (mitigation) choralari, monitoring va hisobot berish mexanizmlari, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, shuningdek salohiyatni oshirish va o'quv-trening tadbirlarini o'z ichiga oladi.

d) Loyihaning mumkin bo'lgan ta'sirlari haqida ma'lumot berish va manfaatdor tomonlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar natijalarini, shu jumladan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari (grievance redress procedures)ni umumlashtirish.

17. R8 subloyihasi va unga bog'liq faoliyatlarning potensial ekologik ta'sirlari qisqa muddatli, qaytariladigan va asosan obyekt (loyiha joyi) ga xosdir. R8 subloyihagini qurilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial ta'sirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: (i) havo ifloslanishi – chang va boshqa uchuvchan chiqindilar (fugitive emission) tufayli; (ii) cho'kma moddalarni chiqarib tashlash – kanalni rekonstruksiya qilish jarayonida qazib olingan cho'kma (sedimentlar) va boshqa materiallarni sug'orish kanallari hamda kollektor-drenaj tarmoqlaridan olib tashlash; (iii) qurilish lagerlari va ishchilar turar joyidan chiqadigan maishiy va boshqa chiqindilar; tuproq va suvning ifloslanishi – neft mahsulotlari va xavfli moddalar oqibatida; (iv) tuproq va suvning ifloslanishi – neft mahsulotlari va xavfli moddalar oqibatida; (v) shovqin va vibratsiya – qurilish texnikasi va mexanizmlaridan; (vi) mahalliy gidrologiyaga ta'siri; (vii) kanal bo'ylab mahalliy flora va faunaga ta'sir qilish; (viii) aholi salomatligi va xavfsizligi masalalari, shu jumladan noqulayliklar; (ix) ishchilarning mehnat xavfsizligi va salomatligi bilan bog'liq xatarlar; (x) ijtimoiy nizolar – tashqi hududlardan keladigan ishchilar oqimi (labour influx) sababli yuzaga kelishi mumkin. Ushbu potensial ta'sirlar odatda mahalliy (lokal) xarakterga ega, qisqa muddatli va kichik ko'lamli bo'lib, ularni AMBR/OUMAMBR (Atrof-muhitni boshqarish rejasi/Obyekt uchun maxsus atrof-muhitni boshqarish rejasi) hamda yaxshi qurilish amaliyotlarini qo'llash orqali kamaytirish mumkin.

18. R8 subloyihasi Majburiy Ko'chirish (Involuntary Resettlement – MK)ni talab qilmaydi. Biroq, dala tekshiruvlari asosida kanal bo'ylab ayrim noqonuniy yer egallashlar aniqlangan, jumladan: 1 ta molxona, 1 ta tashlab ketilgan loydan qurilgan inshoot va 2 ta asalari boqish joyi. Ijtimoiy tekshiruv (social due diligence) batafsil loyiha proyeksi yakunlangandan so'ng amalga oshiriladi, bunda MK ta'sirlari va har qanday oldingi muammolar (legacy issues) aniqlanadi.

19. R8 subloyihagini modernizatsiya qilish jarayonida kanal bo'ylab ikki tomonda joylashgan daraxtlar va butalarni keng ko'lamda kesish talab etiladi. Kanal qurilishi uchun loyiha, shuningdek, mahalliy hududlardan katta miqdorda qum olishni ham talab qiladi.

20. Suv ta'minoti xavfsizligi va qishloq xo'jaligi mahsuldorligidan tashqari, R8 loyihasi Xorazm viloyatida ijobiy kumulyativ (to'planib boruvchi) va induksion (bilvosita) ta'sirlarni keltirib chiqarishi kutilmoqda. Bular jumlasiga – fermerlarning daromad olish imkoniyatlarini mustahkamlash, gender tengligini yaxshilash, ayollarning yer va suv resurslarini boshqarishda ishtirokini oshirish kiradi. Bu esa o'z navbatida aholining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga hamda salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

21. Yangiariq tumanida 2024-yil 22-sentyabrda Xorazm viloyati, Tuzloq mahallasi binosida manfaatdor tomonlar bilan uchrashuv o'tkazildi. R8 subloyihasi yig'ilishlar davomida taqdim etildi, DAMT jarayoni tushuntirildi, potensial ta'sirlar va AMBR muhokama qilindi hamda tavsiyalar, izohlar va xavotirlar to'plandi. Jamoatchilik uchrashuvlarida fermerlar, Yangiariq, Bog'ot va Xonqa tumanlari vakillari, mahalliy hokimliklar, Havza irrigatsiya tizimi boshqarmasi mutaxassislari, kadastr xizmati va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirok etdi. Batafsil ma'lumot uchun VII-bobga qarang – Jamoatchilik bilan uchrashuv (Consultation) va axborotni oshkor qilish (Public Consultation and Information Disclosure).

22. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi asosiy bandlik va daromad manbai bo'lib, ayniqsa, qishloq joylarda aholining 78,1% ga yaqini qishloq xo'jaligida band. Suv xo'jaligi inshootlarining eskirishi (deterioratsiyasi) tufayli mahalliy hokimiyat organlari uchun sug'orish maqsadida barqaror suv ta'minotini ta'minlash qiyinlashmoqda. Agar R8 subloyihasi amalga oshirilmasa, quyidagi asosiy ta'sirlar yuzaga keladi:

- a) Suv ta'minoti quvvati va samaradorligi pasayishda davom etadi.
- b) Suv yo'qotishlari va sho'rlanish vaqt o'tishi bilan kuchayadi.
- c) Qishloq xo'jaligi mahsuldorligi pasayadi.
- d) Suv resurslarini boshqarish salohiyati yaxshilanmaydi.
- e) Infratuzilma modernizatsiya qilinmaydi.
- f) Suv yetishmasligi sababli foydalanilmayotgan yerlar ulushi ortadi.
- g) Fermer xo'jaliklarini boshqarish va suvdan foydalanish salohiyati rivojlanmaydi.
- h) Umuman olganda, R8 sug'orish maydoni hududidagi fermer xo'jaliklari daromadi yaxshilanmaydi.

23. Yuqorida keltirilgan sabablar tufayli 'Loyiha amalga oshirilmasligi' varianti maqbul deb hisoblanmaydi. Bundan tashqari, keyingi boblarda tasvirlangan R8 kichik loyihasining atrof-muhitga ta'sirini tegishli yumshatish choralari ko'rish orqali oldini olish yoki minimallashtirish mumkin. Subloyihani iqlimga moslashuvchan qilish uchun loyihaga Fleximat (maxsus geosintetik material) to'liq yoki qisman integratsiya qilinishi mumkin.

Tavsiyalar

24. Loyihalash bosqichida iqlimga moslashuvchan choralarni kiritish

- a) Nasoslar va shlyuzlarni qulflashni joriy etish hamda markazlashtirilgan monitoring tizimi orqali kuzatishni tashkil etish.
- b) Kanal bo'yidagi daraxt zichligi yuqori bo'lgan joylarda loyihani qayta ko'rib chiqib, daraxtlarni kesishni oldini olish va kamaytirish; shuningdek, kesish o'rniga daraxtlarni ko'chirish imkoniyatini o'rganish kerak. OTB missiyasi bilan uchrashuvda (2024-yil may) loyihaning P8 kanali bo'yidagi daraxtlarga ta'siri muhokama qilindi. Ekologiya vazirligi va Vazirlar Mahkamasidan kanal bo'ylab ko'chatlar ekish uchun ruxsat olish masalasi bilan Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi LAOB shug'ullanmoqda.
- c) Loyiha umumiy karbon izini kamaytirish maqsadida, asosiy yoki ikkilamchi kanallarga beton plitani (concrete mat) integratsiya qilish imkoniyatini o'rganish.
- d) Iqlimga moslashuvchan loyiha joriy etish imkoniyatini o'rganish – oqimga asoslangan tizimdan zamonaviy suv sathi va oqimni nazorat qiluvchi loyihaga o'tish.
- e) Modernizatsiyadan keyin ham 40% suv chiqarish nuqtalari elektr energiyasi bilan ishlashda davom etadi (nasos orqali). Karbon (Uglerod) izini kamaytirish uchun quyidagi tavsiyalar berilgan:
 - Agar nasos ishlatilishi oldini olish mumkin bo'lmasa, karbon izini kamaytirish maqsadida eski nasoslarni energiya samarador nasoslar bilan almashtirish imkoniyatlarini o'rganish.
 - Kanal usti va kanal qirg'oqlarida quyosh FV (quyosh fotovoltaiik) loyihalarini joriy etish imkoniyatini o'rganish; batafsil ma'lumot uchun 335-bandga murojaat qiling – Hindistondagi tajriba: kanal usti va kanal qirg'oqlarida quyosh energiyasi loyihalari.

- Uglerod izlarini kamaytirish uchun kam uglerodli materiallar va mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish.

25. Qurilishdan oldingi va Qurilish bosqichi

- a) Qurilish boshlanishidan oldin, Loyiha boshqaruv birligi (LBB) Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasidan ekologik ruxsatnoma/tasdiq olishi talab etiladi.
- b) AMBR (Environmental Management Plan) tender bosqichida pudratchilarga DAMT va AMBR talablari haqida ma'lumot berish uchun ishlatilishi mumkin va LAOB pudratchini AMBR bilan muvofiqlikda Obyekt uchun maxsus atrof-muhitni boshqarish rejasi (OUMAMBR) tayyorlashda rahbarlik qilishi kerak.
- c) LAOB/LAOBM ekologik xavfsizlik talablarini tender hujjatlari va shartnomalarga kiritilishini ta'minlaydi; pudratchilar AMBR/OUMAMBRni amalga oshirish uchun yetarli xodimlar va byudjet ajratilishini ta'minlaydi.
- d) 63-jadvalda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha SXV/LBB/LAOBM mas'uliyati kabi tavsiyalar sanab o'tilgan.


26. Eksploatatsiya bosqichi

- a) Fermerlar tomonidan loyihani qabul qilishni oshirish maqsadida ularga kafolatlangan minimal suv miqdorini ta'minlash.
- b) Tomchilatib sug'orish kabi suvni tejash choralari qo'llayotgan yoki joriy qilayotgan fermerlarni rag'batlantirish.
- c) Suvni tejash choralari bo'yicha xabardorlikni oshirish.

1. Kirish

27. Mamlakatdagi umumiy ekin hosilining taxminan 95 foizi Markaziy Osiyodagi eng katta sug'orish va drenaj tarmog'iga bog'liq. Sug'orish va drenaj inshootlarining eskirishi yer resurslari, shu jumladan yer osti va yer usti suvlariga bosim yaratadi. Belgilangan sug'orish me'yorlaridan ortiqcha suv iste'moli, noto'g'ri suv boshqaruvi va yetarli drenaj tizimining yo'qligi yer degradatsiyasining asosiy omillari bo'lib, bu hosildorlik va yer unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2-rasmga qarang: O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi hududlari.

2-rasm: O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi hududlari⁷



Manba: O'zbekiston, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023-yil noyabr, Jahon banki


28. Noto'g'ri sug'orish amaliyotlari va yetarli drenaj tizimlarining yo'qligi sababli, mamlakatda 500,000 gektardan ortiq yer allaqachon suv bosgan va sho'rlangan. Batafsil ma'lumot uchun 3-rasmga qarang: Turli sug'oriladigan hududlardagi sug'orish samaradorligi.

29. 2019 yilda mamlakatda mavjud 4,3 million gektar yer maydonining 2,6 million gektari sug'orish uchun ishlatilgan. Sabablari: (a) sho'rlanish tufayli qishloq xo'jaligi yerlari tashlab ketilgan, (b) infratuzilma buzilgan, (c) elektr energiyasi yetishmasligi, va (d) shahar va sanoat kabi raqobat qiluvchi foydalanuvchilar ortishi tufayli suv yetishmasligi.

⁷ <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>

3-rasm: 2016 yildan 2020 yilgacha turli sug'oriladigan qishloq xo'jaligi hududlarida sug'orish samaradorligi

Irrigation efficiency, 2016–2020



Manba: O'zbekiston, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti, 2023 yil noyabr, Jahon banki.

30. Xorazm viloyatida sug'orish samaradorligi taxminan 40 foizni tashkil qiladi (Jahon banki, 2023), bu esa mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriroqdir, 3-rasmga qarang. Hisob-kitoblarga ko'ra (Jahon banki, 2023), agar suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, qishloq xo'jaligi hosili 10 foizga kamayishi kutilmoqda. Xuddi shu hisobotda qayd etilishicha, samarali suv boshqaruvi amaliyotlari joriy etilib, mavjud sug'orish infratuzilmasi modernizatsiya qilinsa, qishloq xo'jaligi hosili 62 foizga oshishi mumkin.

31. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda Amudaryo va Zarafshon daryosi havzalaridagi eskirgan sug'orish va drenaj (S&D) subloyihalarini modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlamogda.

32. Sug'orish tizimini mustahkamlash maqsadida, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) 2019 yil 7 avgustda Aral dengizi havzasi uchun Iqlimga Moslashuvchan Suv Resurslarini Boshqarish loyahasini tayyorlash uchun Tranzaksiyalar bo'yicha texnik yordam (TBTY) dasturiga 1,2 million dollar mablag' ajratdi. Mablag' OTBning Texnik Yordam Maxsus Fondidan (TASF-6) grant sifatida taqdim etildi va texnik-iqtisodiy asoslash tadqiqotlari (feasibility studies) uchun ishlatiladi.

33. TBTY (Transaction Technical Assistance) suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (daryo havzasidan tortib fermer xo'jaligigacha) uchun strategiya, siyosat va nstitutsional muvofiqlashtirish uchun yo'l xaritasini ishlab chiqish zaruratini aniqladi, shuningdek, iqlimga chidamli yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini o'rganadi.

34. Hukumat sakkizta potentsial subloyihalar ro'yxatini taklif qildi, shulardan Babatag va Jondor sug'orish tizimlari birgalikda tanlandi va ular **“asosiy”** (core) subloyihalar deb ataladi. Shuningdek, hukumat va OTB o'rtasida kelishilganidek, modernizatsiya uchun yana ikki S&D tizimini aniqlash rejalashtirilgan bo'lib, ularni **“asosiy bo'lmagan”** (non-core) subloyihalar deb atashadi. Batafsil ma'lumot uchun 13-jadvalga qarang.

35. Loyiha qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini uch tomonlama

yondashuv orqali amalga oshiradi:

- a) Iqlimga chidamli va modernizatsiya qilingan sug'orish va drenaj (S&D) infratuzilmasi orqali mavjud tizimlarda o'lchash, boshqarish va suv yetkazib berishni yaxshilash;
- b) Fermer xo'jaliklarida ishonchli suv boshqaruvini mustahkamlash, jumladan, Suv Foydalanuvchilari Uyushmalari (SFU) salohiyatini oshirish, fermer darajasida yer va suv boshqaruvi bo'yicha yaxshilanishlarni amalga oshirish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash; hamda
- c) Barqaror suv resurslarini boshqarish uchun siyosat va institutsional mustahkamlash.

36. Sakkizta potentsial subloyihalar ro'yxatidan "asosiy bo'lmagan" (non-core) subloyihani aniqlash uchun. "R8" sug'orish tizimini tanlashda oldindan belgilangan OTB saralash mezonlari qo'llanildi; batafsil ma'lumot uchun 1-ilovaga qarang. Saralashdan oldin R8 subloyihasida ekologik va ijtimoiy xavflarning darajasini baholash maqsadida oldindan dastlabki tekshiruv o'tkazildi.

37. R8 irrigatsiya tizimi 1940-yilda, 1991-yilda mamlakat mustaqillikka erishganidan taxminan 50 yil oldin qurilgan. Tizimga suv Tashsaka bosh kanalidan keladi, Tashsaka esa Amudaryo daryosidan suv oladi. Kanal uchta sug'orish tumanlariga suv yetkazadi: Xonqa, Bogot va Yangiariq (3-rasm). Barcha tumanlar orasida Yangiariq tumani R8 kanalidan suvning eng katta iste'molchisi hisoblanadi. Yangiariq tumanidagi 8 ta Suv Foydalanuvchilari Uyushmasi (SFU) R8 kanalidan suv oladi va uni 766 suv foydalanuvchiga taqsimlaydi. Kanal suv bilan ta'minlaydigan hududidagi asosiy ekinlar: paxta 5,990 ga (31%), bug'doy 3,998 ga (21%), yem-xashak 4,175 ga (21%), sabzavotlar 2,358 ga (12%), bog'dorchilik 2,939 ga (15%). Hududdagi o'rtacha hosil 2,5 t/ga ni tashkil qiladi.

38. R8 kanalini modernizatsiya qilish bo'yicha obyekt tekshiruvi va taklif qilingan qurilish ishlari asosida aniqlanishicha, ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning aksariyati hududga xos bo'lib, ularni Oqilona atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasini (Environment and Social Management Plan – ESMP) qabul qilish orqali kamaytirish mumkin. Batafsil ma'lumot uchun 2-jadvalga qarang: Loyiyaning amalga oshirilishi va amalga oshirilmagandagi holatlarida mahalliy atrof-muhitga ta'siri.

39. Oldindan belgilangan OTB saralash mezonlariga ko'ra, loyiha OTB EIXSB 2009 ga muvofiq B toifali loyiha sifatida tasniflanadi. Ekologik va ijtimoiy saralash natijalari 15-jadvalda jamlangan.

40. R8 sug'orish hududida o'rmon yoki qo'riqlanadigan hudud mavjud emas. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (XTMQI) ma'lumotlariga ko'ra, R8 hududidagi turlar 'eng kam xavf ostida' (Least Concern) kategoriyasiga kiradi. Hududda kam uchraydigan va yo'qolib borayotgan turlar, qo'riqlanadigan yoki sezgir hududlar mavjud emas. Obyekt tekshiruvi (kanal bo'ylab) natijalariga ko'ra, loyiha hududidagi havo sifati umumiy qilib qabul qilinarli darajada, chunki bu hudud qishloq joylashuvi, kam transport harakati va sanoat korxonalarining yo'qligi bilan izohlanadi.

2-jadval: Mahalliy atrof-muhitga ta'sirlar – Loyihasi amalga oshirilsa va amalga oshirilmaganda

T/r	Ta'sir zonalari	Qo'llanilishi	Loyiha amalga oshirilmasa	Loyiha amalga oshirilsa (Loyiha amalga oshirilishi natijasidagi ta'sirning darajasi)
1	Majburiy ko'chirish	Qo'llanilmaydigan	-	-
2	Tirikchilik manbalarini yo'qotish	Kanal qirg'og'ida DAMT jamoasi quyidagilarni aniqladi: molxona (1 ta), tashlab ketilgan tuproqdan qurilgan inshoot (1 ta), asalarichilik joylari (2 ta)	Ta'siri yo'q	+
3	Yaqin atrofda arxeologik va madaniy jihatdan muhim joy mavjud	Qo'llanilmaydigan	Qo'llanilmaydigan	-
4	Loyiha hududida Muhim Biologik Hududlar (Key Biodiversity Areas, KBA) mavjudligi	Qo'llanilmaydigan	Qo'llanilmaydigan	-
5	Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, yoki muhofaza qilinadigan turlarning mavjudligi	Qo'llanilmaydigan	Qo'llanilmaydigan	-
6	Daraxtlarni kesish	Taxminan 1870 ta daraxt zarar ko'radi	Ta'siri yo'q	+++
8	Jamiyat salomatligi va xavfsizligi	Kanalning ikkala tomonida odamlar yashash punktlari aniqlangan. Loyiha amalga oshirilishi natijasida keng ko'lamli qurilish ishlari, mahalliy resurslarga bosim va transport harakatining oshishi sababli jamoat salomatligi va xavfsizligiga xavf tug'ilishi mumkin.	Oddiy	+++
9	Mehnat salomatligi va xavfsizligi	Loyiha ko'plab ishchilarni jalb qiladi; demak, bunday hajmdagi loyiha ishchilarning mehnat salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi	Ta'siri yo'q	+++
10	Transport harakati ta'sirlari	Keng ko'lamli qurilish ishlari natijasida transportning ko'payishi mahalliy resurslarga sezilarli bosim yaratadi, bu esa havo va shovqindan ifloslanishiga, jamoat salomatligi va xavfsizligiga xavf tug'ilishiga hamda aholiga noqulayliklar yuzaga kelishiga olib keladi	Oddiy	+++
12	Tuproq va er osti suvlarining ifloslanishi	Shu kabi katta loyihalar katta miqdorda neft mahsulotlari va xavfli moddalarni ishlatadi hamda qattiq va suyuq chiqindilar hosil qiladi. Oldini olish choralarini ko'rilmasa, bu tuproq va yer osti suvlarini ifloslanishiga olib keladi	Oddiy	++

13	Suvning ifloslanishi	Asosan ishchilar lagerlari, qurilish lagerlari va mexanik ustaxonalardan hosil bo'ladi	Oddiy	++
14	Havoning ifloslanishi	Qurilish ishlari vaqtinchalik ravishda mahalliy havo sifatiga ta'sir ko'rsatadi, asosan transport vositalarining harakati, beton aralashtirish uskunalari va qurilish materiallari omborlaridan kelib chiqadigan yo'l changi (erkin tuproq) tufayli. Biroq, ochiq havoda amalga oshiriladigan ishlar hajmi inobatga olinsa, bu ta'sirlar sezilarli bo'lishi kutilmoqda	Oddiy	+++
15	Shovqin tufayli zaharlanish	Doimiy ta'sir qilish tufayli odamlarga noqulaylik tug'diradi va ishchilarning sog'lig'iga ta'sir qiladi	Cheklangan	+++
18	Ishchilar oqimi	Mahalliy resurslarga bosim yaratishi, ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi va mahalliy aholi bilan aralashish natijasida yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkin	Cheklangan	+++
21	Transchegaraviy ta'sirlar	Transchegaraviy ta'sirlar kutilmaydi	Yo'q	Atrof-muhitga ta'sirlar umumiy, vaqtinchalik, qaytariladigan va asosan aniq hudud (joy) bilan cheklanadi
22	Induktsiya qilingan ta'sirlar (loyiha yoki faoliyat natijasida bevosita bo'lmagan, lekin bilvosita yuzaga keladigan ta'sirlar)	Loyiha bir qator qisqa muddatli va uzoq muddatli ta'sirlarni keltirib chiqaradi	Oddiy	Suv xavfsizligining (ta'minotini) yaxshilanishi fermerlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa ularning daromad salohiyatini mustahkamlab, natijada umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka, shu jumladan sog'liq holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. (+++ Ijobiy ta'sir)
24	Kumulativ ta'sir (bu bir necha alohida ta'sirlarning vaqt o'tishi bilan jamlanib , birgalikda kattaroq, murakkab yoki doimiy ta'sirga olib kelishini anglatadi.)	Ko'paytiruvchi (multiplikativ) ta'sirlar (sekin amalga oshadigan)	Oddiy	Yo'l va harakatchanlikni yaxshilash, gender tengligini ta'minlash, ayollarning yer va suv resurslarini boshqarishdagi ishtirokini oshirish, iqlimga chidamli infratuzilmani rivojlantirish hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni mustahkamlash, ijobiy ta'sir

Eslatma: Past +, O'rtacha ++, Yuqori +++

3-jadval: Loyiha amalga oshirilmasa va loyiha amalga oshirilganda kanallar bo'yicha suv sarfi taqqoslanishi

T/r	Nomi	Tizim samaradorligi	Suv sarfi, million m³
1	Loyiha amalga osirilmagandagi holatda suv sarfi	0,56	640.9
2	Loyiha amalga oshirilgan holatda suv sarfi (kanallarni modernizatsiya qilish)	0,8	531.4
3	Suv sarfini kamaytirish / oshirish		109,5

1.1. DAMT maqsadi

41. R8 – hukumat tomonidan aniqlangan sakkizta subloyihalar ro'yxatidan tanlangan ikki "asosiy bo'lmagan" (non-core) subloyihalardan biri bo'lib, tanlov batafsil muhokama qilinib, oldindan belgilangan saralash mezonlariga javob berishi tekshirilganidan so'ng amalga oshirilgan.

42. Xorazm viloyatidagi R8 subloyihasining Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi (DAMT) Orol dengizi havzasida Iqlimga mos suv resurslarini boshqarish loyihasini tayyorlash doirasida o'tkazilgan bo'lib, OTBning Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti (EIXSB) (2009) talablariga hamda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

43. Osiyo Taraqqiyot Bankining 2009-yildagi Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti (EIXSB) ga muvofiq, R8 sug'orish tizimi B kategoriyali loyiha sifatida tasniflangan. R8 sug'orish tizimining DAMT-I quyidagi manbalarga tayangan holda tayyorlangan: texnik-iqtisodiy asoslash hisobotidagi ma'lumotlar; obyekt tekshiruvi; birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlarning tahlili; potensial ta'sirlarning tavsifi va baholash; shuningdek, mahalliy va boshqa manfaatdor tomonlar bilan intervyu va muhokamalar.

DAMT quyidagi maqsadlarda tayyorlangan:

- a) Subloyiha doirasidagi mavjud ijtimoiy-ekologik sharoitlarni tavsiflash;
- b) Sub-loyihalarni amalga oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial atrof-muhit ta'sirlari va xavflarni aniqlash;
- c) Sub-loyihalarni joylashuvi, dizayni va texnik yechimlari asosida tahlil qilish, shu jumladan "loyiha amalga oshirilmaslari" (no project) variantini ham hisobga olish;
- d) Iqlim o'zgarishiga mos javob bera oladigan variantlarni taklif qilish
- e) Potensial atrof-muhit ta'sirlarini oldindan aniqlash va baholash
- f) Loyiyaning atrof-muhit va zarar ko'rgan odamlarga salbiy ta'sirini imkon qadar oldini olish;
- g) Agar loyiyaning salbiy ta'siridan qochish imkoni bo'lmasa, atrof-muhit va zarar ko'rgan odamlarga bo'lgan salbiy ta'sirlarni kamaytirish, yumshatish va kompensatsiya qilish;
- h) AMBRni ishlab chiqish, unga taklif etilgan yumshatish choralari, monitoring dasturi va hisobot berish talablari, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, shuningdek, imkoniyatlarni rivojlantirish kiradi
- i) Rivojlanish va malaka oshirish choralari;
- j) Sub-loyihada shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini tavsiflash va joriy etish, bunda zarar ko'rgan shaxs yoki norozi tomon o'z shikoyatlarini bildirish va ularni hal qilish imkoniga ega bo'ladi.

1.2. Yondashuv va metodologiya

44. DAMT OTBning EIXSB (Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti) talablariga muvofiq tayyorlangan. Tadqiqot quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish orqali olib borilgan:

- a) Loyiha hududining dastlabki baholash va o'rganish jarayoni.
- b) Loyiha hududlariga tashrif buyurish
- c) Ikkilamchi ma'lumotlarni ko'rib chiqish
- d) Texnik-iqtisodiy hisobot loyihasini ko'rib chiqish.
- e) LBQ (Loyihani boshqarish qo'llanmasi)¹⁶da belgilangan xavfsizlik shartlari
- f) Oldindan belgilangan mezonlar asosida saralash (screening)

- g) Asosiy subloyihalar bo'yicha DAMT hisobotini ko'rib chiqish
- h) Jamoatchilik bilan uchrashuvlar (konsultatsiya).
- i) Xorazm viloyati bo'yicha geologiya, yer osti va yer usti suvlar, tuproq, iqlim, flora, fauna va madaniy resurslarga oid nashr qilingan hisobotlarni ko'rib chiqish.
- j) Ushbu loyiha bo'yicha xalqaro mutaxassislar tomonidan olib borilgan qo'shimcha tadqiqotlarni ko'rib chiqish.

1.3. Loyiha kategoriyalashuvi

45. R8 sug'orish tizimini saralashdan (screening) oldin, Xorazm viloyatidagi R8 subloyihasidagi ekologik va ijtimoiy xavflarning darajasini baholash maqsadida, 2023-yil 26–27 may kunlari atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha mutaxassislar tomonidan dastlabki (reconnaissance) so'rovi o'tkazilgan. Dastlabki (reconnaissance) so'rovi shuni ko'rsatdiki, aksariyat ekologik va ijtimoiy ta'sirlar hududga xos bo'lib, ularni Oqilona Atrof-muhit va Ijtimoiy Boshqaruv Rejasini qabul qilish orqali kamaytirish mumkin. Ekologik va ijtimoiy saralash (screening) natijalari jadvalda jamlangan. Oldindan belgilangan OTB saralash mezonlari asosida loyiha quyidagi sabablar bo'yicha B kategoriyali loyiha sifatida tasniflangan.

- a) A toifadagi loyihalarga qaraganda atrof-muhitga salbiy ta'sirlar kamroq;
- b) Ta'sirlarning aksariyati hududga xosdir, ulardan bir nechitasi qaytarilmas (masalan, kanalning ikkala tomonida kesilgan daraxtlar) va
- c) Aksariyat hollarda yumshatish choralari A toifali loyihalarga qaraganda osonroq ishlab chiqilishi mumkin.

Shu sababli, DAMT OTBning ekologik xavfsizlik talablarini qondirish uchun yetarli deb hisoblanadi. Qurilishdan oldingi bosqichdagi muammolar juda kam bo'lishi kutilmoqda, chunki loyiha majburan ko'chirish yoki tirikchilik vositalarining yo'qotilishiga olib kelmaydi.

Milliy siyosatga (Vazirlar Mahkamasining 541-sonli Qarori, 07.09.2020) muvofiq, R8 subloyihasi II kategoriyali loyiha sifatida tasniflangan va shuning uchun Milliy Hukumatning Atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) talablari bo'yicha AMTB o'tkazish majburiydir.⁸

1.4. Cheklovlar va chegaralar (limitlar)

46. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslash (feasibility) bosqichida bo'lgani sababli, bir qator faoliyatlar hali ishlab chiqishning dastlabki bosqichida, masalan;

- (a) Kanal turlari bo'yicha yakuniy texnik qarorlar bilan batafsil loyihalashtirish
- (b) Xom ashyo manbalarini aniqlash,
- (c) Qazib olish joylari (karyer) joylashuvi va soni,
- (d) Kesilishi rejalashtirilgan daraxtlarning aniq soni
- (e) Karyerlar,
- (f) Kesilishi rejalashtirilgan daraxtlarning aniq soni
- (g) Yo'l qurilishi
- (h) Ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj va ularning turar joyi va boshqalar

Yuqoridagi barcha masalalar hozirgi qabul qilingan ish hajmidan farq qilishi mumkin. Agar loyiha dizayni bo'yicha har qanday tafsilotlar yoki yuqorida ko'rsatilgan texnik qarorlar o'zgarsa va natijada kutilmagan atrof-muhit ta'sirlari yuzaga kelsa, DAMT va AMBR LAOB/LAOBM tomonidan yangilanadi.

⁸⁸ Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 541-son qarori (<https://www.lex.uz/docs/4984499>)

1.5. Hisobot tuzilmasi

47. Ushbu hisobot ijroiya xulosasi hamda jami o'n bo'limni o'z ichiga oladi. Hisobot OTB EIXSB (2009) talablariga muvofiq tarzda tuzilgan:

- a) **I bob: Kirish** – Ushbu bo'lim loyihaga oid kirish ma'lumotlarini taqdim etadi.
- b) **II bob: Huquqiy, siyosiy va ma'muriy asoslar** – Ushbu bo'lim milliy siyosat va qonunchilik asoslarini, shuningdek, amal qiluvchi OTB EIXSB (2009) standartlari haqida umumiy ma'lumot beradi.
- c) **III bob: Loyihaning tavsifi** – Ushbu bo'lim loyihaning zarurligini bayon etadi. Loyihaning muqobil variantlarini o'z ichiga olgan talab qilinadigan muhandislik ishlari turini ko'rsatadigan ishlarning batafsil hajmi ham taqdim etiladi.
- d) **IV bob: Atrof-muhitning tavsifi (asosiy ma'lumotlar)** – Ushbu bo'lim mintaqaviy va mahalliy atrof-muhitning boshlang'ich holatini muhokama qiladi.
- e) **V bob: Kutilayotgan atrof-muhitga ta'sirlar va kamaytirish choralari** – Ushbu bo'lim mumkin bo'lgan atrof-muhit ta'sirlarini tavsiflaydi va ularni yumshatish choralari taklif qiladi.
- f) **VI bob: Muqobil variantlarning tahlili** – Ushbu bo'lim taklif etilgan inshoot, texnologiya, loyiha va ekspluatatsiya uchun muqobil variantlarni, shu jumladan loyiha amalga oshirilmaslik (no-project) variantini taqdim etadi.
- g) **VII bob: Jamoatchilik bilan uchrashuvlar, ma'lumotlarni oshkor etish** – Ushbu bo'lim amalga oshirilgan barcha manfaatdor tomonlar bilan uchrashuv faoliyatlarining qisqacha mazmunini taqdim etadi.
- h) **VIII bob: Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (ShKChM)** – Ushbu bo'lim shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmining batafsil tizimini, jumladan ma'lumotlarni oshkor qilish mexanizmini taqdim etadi.
- i) **IX bob: Atrof-muhitni boshqarish rejas va institutiy talablar** – Ushbu bo'lim loyihaning loyihalashtirish, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari uchun Atrof-muhitni boshqarish rejasini taqdim etadi.
- j) **X bob: Xulosa va tavsiyalar** – Hisobotning yakuniy bo'limi hisobot xulosalari hamda zarur bo'lgan tavsiyalarni taqdim etadi.

PIU/ LAOB	Loyihani amalga oshirish bo'limi
PIC/ LAOBM	Loyihani amalga oshirish bo'yicha maslahatchi
EMP/ AMBR	Atrof-muhitni boshqarish rejasini
ESMP/ OAMIBR	oqilona atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejasini
SSEMP/ OUMAMBR	Obyekt uchun maxsus atrof-muhitni boshqarish rejasini
GRM/ ShKChM	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi
CIFIPWS/ SXSXILAOM	Suv xo'jaligi sohasida xorijiy investitsiyalar loyihalarini amalga oshirish markazi
IEE/ DAMT	Dastlabki atrof-muhit tekshiruvi
SPS/ EIXSB	Ekologik va ijtimoiy xavfsizlik siyosati bayonoti
EIA/ AMTB	Atrof-muhitga ta'sirni baholash
BISA/ HITB	Havza irrigatsiya tizimi boshqarmasi
PMU/ LBB	Loyiha boshqaruv birligi
OHS/ MSX	Mehnat salomatligi va xavfsizligi